

UILYAM SHEKSPIRNING HAMLET ASARI HAMDA UNING O'ZBEKCHA
TARJIMASIDA PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI TAHLILI.

Sanobar Bo'riyeva

Xalqaro innovatsion universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Jahon adabiyotida beqiyos o'ringa ega bo'lgan Uilyam Shekspir asarlarini o'rganish har doimgidan ham dolzarb masalaga aylangan bir vaqtda uning asarlarini tarjima qilish, tilshunoslikning turli sohalarida tahlil qilish ham bugun kun talabiga aylanmoqda. Shu sababdan ham ushbu maqolada Shekspir asarlarini tarjima qilgan o'zbek adiblari, ularning uslublari hamda psixolingvistik tahlili haqida so'z yuritilgan. Maqolada Shekspirning mashhur tragediyalaridan biri bo'lgan "Hamlet" asarining tarjima variantini psixolingvistik jihatdan tahlil qilingan va uni asl variant bilan taqqoslangan.*

Kalit so'zlar: *psixolinvestika, Hamlet, monolog, emotsional, metafora mubolag'a, pauza, antiteza, tragediya.*

AN ANALYSIS OF THE PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF WILLIAM
SHAKESPEARE'S HAMLET AND ITS UZBEK TRANSLATION.

Sanobar Burieva

Master degree student, International Innovative University.

Abstract: *The study of the works of William Shakespeare, who holds an unparalleled place in world literature, has become more relevant than ever, while translating his works and analyzing them in various fields of linguistics are also becoming a daily requirement today. For this reason, this article discusses the Uzbek writers who translated Shakespeare's works, their methods and psycholinguistic analysis. The article analyzes the translation of one of Shakespeare's famous tragedies, "Hamlet", from a psycholinguistic perspective and compares it with the original version.*

Keywords: *psycholinguistics, Hamlet, monologue, emotional, metaphor, exaggeration, pause, antithesis, tragedy.*

АНАЛИЗ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ «ГАМЛЕТА»
УИЛЬЯМА ШЕКСПИРА И ЕГО УЗБЕКСКОГО ПЕРЕВОДА.

Санобар Буриева

Магистрантка Международного инновационного университета.

Аннотация: *Изучение произведений Уильяма Шекспира, занимающего непревзойденное место в мировой литературе, стало как никогда актуальным, а перевод его произведений и их анализ в различных областях лингвистики сегодня*

тажже становятся повседневной необходимостью. По этой причине в данной статье рассматриваются узбекские писатели, переводившие произведения Шекспира, их методы и психолингвистический анализ. В статье анализируется перевод одной из известных трагедий Шекспира, «Гамлета», с психолингвистической точки зрения и проводится сравнение с оригиналом.

Ключевые слова: *психолингвистика, Гамлет, монолог, эмоциональный, метафора, преувеличение, пауза, антитеза, трагедия.*

KIRISH

Uilyam Shekspir tragediyalarini tarjima qilishga o'zbek adabiyotshunos olimlarimizdan ko'pchiligi diqqat qaratib kelishgan hamda ulardan ko'pchiligini mohirona tarjima qilishgan. Sababi bu nafaqat jahon adabiyotini o'rganish imkoniyatini, balki milliy adabiyotimizni ham jahonning shoh asarlaridagi badiiy adabiyot mahorati bilan boyitishga ham yordam beradi. Shekspir asarlaridagi qahramonlarining ichki nutqi, psixologik holatlarini psixolingvistik jihatdan o'rganish hozirgi kunda adabiyotshunoslariga ham dolzarb yangilik bo'lib xizmat qiladi.

Uzoq yillar davomida o'zbek kitobxonlari Shekspir asarlarini o'rganishda uni o'qishda, tahlil qilishda qiynalishgan. Shekspir asarlari jahon miqyosida mashhur bo'lsada uni o'zbek tilidagi tarjima variant bo'lmagan shu sababdan ham uni rus va ingliz tillarida mutolaa qilishlariga to'g'ri kelgan. Shekspir asarlarini tarjima qilgan tarjimonlar, tarjimashunos adiblar qatoriga Cho'lpon, G'afur G'ulom, Yashin, Uyg'un, Shayxzoda, Turob To'la, Q. Mirmuhamedov kabilarni kiritishimiz mumkin. Ammo ular orasida ajralib turadiganlardan biri bu Jamol Kamol deya aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u Shekspir asarlarini bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Shekspir asarlaridan „Hamlet“ tragediyasining tarjimasiga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, uni ilk bora Cho'lpon rus tilidan o'zbek tiliga 1934- yilda tarjima qilgan. Keyinchalik rus tilidan Maqsud Shayxzoda ham tarjima qilgan ammo uni ingliz tilidan bevosita 1991-yil Jamol Kamol tarjima qilgan.

Shekspir o'zining so'z qo'llash san'ati bilan mashhur bo'lgan adib hisoblanib, uning asarlarini psixolingvistik jihatdan tahlil qilish orqali uning ong va til o'rtasidagi aloqani vujudga keltira olish qobiliyatini ochib bera olamiz. Shekspir tragediyalari o'zining emotsional ruhga ehga ekanligi bilan, qahramonlarning o'z ichkli dunoyosi bilan kurash olib borishi bilan ajralib turadi. Xususan, adibning „Hamlet“ tragediyasi o'zining ichki monologlari va emotsional nutqlari bilan ajralib turadi. Quyida adibning ushbu targediyasi bilan, uning tarjima varianti o'rtasidagi psixolingvistik birliklarni tahlili keltirilgan uni tarjima varianti bilan taqqoslangan.

“To be or not to be—that is the question:
Whether 'tis nobler in the mind to suffer
The slings and arrows of outrageous fortune,
Or to take arms against a sea of troubles
And, by opposing, end them. To die, to sleep—
No more—and by a sleep to say we end
The heartache and the thousand natural shocks

That flesh is heir to—'tis a consummation
Devoutly to be wished. To die, to sleep—
To sleep, perchance to dream.”¹⁶

Yuqorida keltirilgan parcha Shekspirning „Hamlet“ tragediyasidan keltirilgan bo'lib, misralar bosh qahramonning monologidan keltirilgan hamda qahramonning ongidagi ziddiyatni aks ettirmoqda. Undagi bir qancha psixolingvistik birliklar adib tomonidan qahramonning ruhiy holatini ochib berish uchun mohirona qo'llangan. Ular quyidagilardan iborat:

- Antitezadan foydalanilgan, ya'ni qarama qarshilik orqali bosh qahramonning ichki hissiyotlarini ochib berishga harakat qilgan. Qahramon yashash yoki o'lim o'rtasida tanlovni ongida amalga oshirishga harakat qilayotgan ifodalab kelmoqda, u monolog orqali o'y hayollarini tasvirlab kelmoqda.

- Metaforalardan foydalanilgan, The slings and arrows of outrageous fortune, a sea of troubles kabi metaforalarda Shekspir hayotni zarbalarini, taqdirning o'q yoylari deya, muammolar ko'pligini esa muammolar dengizi deya, emotsionallikni kuchaytirib bermoqda

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shekspir metaforalar qo'llash bo'yicha o'z davrining yetuk mutaxassisi bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi va uning boy merosidan, metaforalaridan hanuzgacha kitobxonlar va adabiyotshunoslar keng tarzda foydalanib kelmoqda.

- Pauza, ya'ni to'xtalishlardan foydalanilgan, to'xtalish yoki pauzalar monologdagi qo'rquv shubha kabi hissiyotlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Shekspirning ushbu asari faqatgina haqiqatni qaror toptirishga uringan qahramon haqida emas, balki insonning ruhiy holatini adib til birliklari orqali mahorat bilan namoyon qila olishini ko'rsatadigan asardir. Shekspir asardagi depressiya, tushkunlik, ikkilanish kabi holatlarni til birliklari orqali ochib bera olgan.

Yo hayot, yo mamot: masala shundoq.
Joizmikin ul jobiru jabbor falakning
Jafosiga har daqiqa chidasa yurak?
Yo balolar dengiziga ko'ndalang bo'lib,
Koyishlaru tashvishlarga chek qo'ymoq kerak?
O'lish. O'zni unutish. Bas, tamom-vassalom.
Ruhiy iztiroblar, tanning iztiroblariga
Bilamizki, chegaradir shu og'ir uyqu.¹⁷

Jamol Kamol tomonidan ushbu bosh qahramonning nutqi, ingliz tilidan o'zbek tiliga mohirona tarjima qilingan. Tarjimon ham tarjima jarayonida asarning asl varintida keltirilgan, va bosh qahramon tomonidan ifodalab berilayotgan hissiyotlarni to'liq ifodalab berishga harakat qilgan. Uning turli xil tarjima variantlaridan farqli jihati o'zbek tili ohangidan foydalanishga harakat qilgan.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz joizki, Uilyam Shekspir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, ularni o'rganish, osixolingvistik jihatdan tahlil qilish orqali o'zbek adabiyotshunosligida kata ilmiy yangiliklar amalga oshirish mumkin sanaladi. O'zbek

¹⁶ Folger Shakespeare Library

¹⁷ V.Shekspir. Tanlangan asarlar. Tamaddun nashriyoti. 2011.

tarjimashunos olimlari Shekspir asarlarini tarjima qilish jarayonda uning turli psixolingvistik xususiyatlarini inobatga olishlari zarur sanaladi. Sababi adib asar yozish jarayonida qahramonlarining ichki kechinmalarini lingvistik brliklar orqali ifodalashda mohirona yondashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.V.Shekspir. Tanlangan asarlar. Tamaddun nashriyoti. 2011.
- 2.Shakespeare, William. Hamlet. Translated by Sh. Saidov. Tashkent: Uzbek Literature Publishing House, 2002.
3. Folger Shakespeare Library.
4. Sewell, E. (1952). The Field of Nonsense. London: D. Campbell Publishers
5. Vilyam Shekspir “Tanlangan asarlar” besh jildlik, ikkinchi jild, Toshkent G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1981.
6. Psycholinguistics (2019), 26(1). Шекспира... 284 Михальчук Наталия & Кришевич Ольга.
7. Til va adabiyot ta’limi 2018-yil 5-son.
8. Kh-davron.uz<https://kh-davron.uz>Uilyam Shekspir: serqirra Ijod va mashaqqatli hayot.
- 9.Wikipedia: William Shakespeare - o'zbek tilidagi tarjimalar tarixi
- 10.ZiyoNET - Shekspir asarlari tarjimasini.
- 11.Cyberleninka - G'afur G'ulom klassik asarlar tarjimoni.